

XIX ASRGA QADAR FORS TILIGA O'ZLASHGAN TURKIY SO'ZLAR**(FORSIY IZOHLI LUG'ATLAR ASOSIDA)**

Maxamadaliev Xislatxon Matlabovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika Universiteti
hislatmahamadaliy@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asrga qadar Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi davrida Hindistonda yaratilgan forsiy izohli lug'atlar va ulardagi turkiy so'zlar xususida so'z boradi. Shuningdek, maqolada turkiy so'zlarning lug'atlarga kirish sabablari ko'rsatib o'tiladi hamda forsiy lug'atlardagi turkiy so'zlar, asosan, **harbiy-siyosiy, maishiy, etnografik va tabiatga oid** sohalarida ko'p uchrashi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: leksikografik manbalar, izohli lug'atlar, leksik birliklar, etimologiya, termin.

Annotation

This article examines Persian explanatory dictionaries compiled in India from the time of Zahiriddin Muhammad Babur and the Mughal dynasty up to the 19th century, focusing on the presence of Turkic words within them. It also discusses the reasons for the inclusion of Turkic lexical items in these dictionaries and notes that such words are most frequently found in the fields of military-political affairs, everyday life, ethnography, and nature.

Keywords: lexicographic sources, explanatory dictionaries, lexical units, etymology, terminology.

Til har bir xalqning tarixini, uning moddiy va ma'naviy hayotini, o'zga xalqlar bilan o'zaro aloqa va munosabatlarini bevosita aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Binobarin, til jamiyat bilan ajralmas aloqada bo'lib, u bilan bog'liq holda rivojlanadi, o'zgaradi. Shunday ekan, jamiyatda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar avloddan-avlodga yetib boradi. Bu o'zgarishlar, xabar va ma'lumotlar turli tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib keladi. Ana shunday tarixiy manbalardan bir qismi lug'atlar bo'lib, ularda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid xabarlar va ma'lumotlar mujassam bo'ladi, lisoniy vositalarda - so'zlarda o'z ifodasini topadi.

Hindistonda Boburiylar sulolasi davrida XIV–XIX asrlarda yaratilgan forsiy lug'atlar sharq tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Forsiy lug'atchilik an'analari IX–X asrlarda shakllana boshlandi. Ilk lug'atlar arab tili ta'sirida yaratilgan bo'lib, asosan forsiy so'zlarning ma'nolarini arab tilida izohlashga qaratilgan. Tarixiy manbalarda X asr boshlarida shoir Abuhafsi Sug'diy o'zining "Risola-i Abuhafsi Sug'diy" lug'atini yaratganligi qayd etiladi [Nurov A., 1987. 4-b.]. XI asrdan boshlab lug'at yaratish ishlari ancha jonlandi, lug'atlar tuzishga alohida e'tibor berildi, chunki xalqlarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji bir-birlarining so'zlarini tushunishga, so'z ma'nolarini anglashga, hayotlarini yaqindan bilishga hamda ajdodlar haqida muayyan ma'lumotlar olishga undar edi. Ana shunday tabiiy va zaruriy ehtiyojlar tufayli bir qator ikki tilli, izohli kabi turli yo'nalishdagi lingvistik lug'atlar tasnif etilgan. Izohli lug'atlardan: Asadi Tusiyning "Lug'ati furs", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-

turk”, Husayni Injuning “Farhangi Jahongiriy”, Roy Tekchandi Bahorning “Bahori Ajam”, Husayni Vafoidning “Farhangnoma”, Abdurashid Tattaviyning “Farhangi Rashidiy”, Muhammad G’iyosuddinning “G’iyos-ul-lug’ot”, Sirojiddin Alixoniy Orzuning “Chirog’i hidoyat”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntahab-ul-lug’ot”, Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul-adab”, “Siroj-ul-lug’ot”, “Shams-ul-lug’ot”, “Badayi-al-lug’at”, “Sanglox”, “Xamsa ba xalli lug’ot”, “Xulosa-yi Abbosiy”, “Lug’oti atrokiya”, “Kelurnoma”, “Alfozi jaliya fi bayoni lug’ati-t-turkiya” va boshqalarni keltirish mumkin. Bu lug’atlarda forsiy so’zlar ma’nolari, qo’llanilishi va ayrim hollarda ularning etimologiyasi ham bayon etilgan.

XIX asrga qadar jahon madaniyati tarixida muayyan millatning til boyliklarini namoyish etadigan, so’zlar ganjinasi sharhi va izohlaridan iborat bo’lgan behisob tarixiy lug’atlar yaratildi. Ayni lug’atlar arab, fors, hind, turkiy, rumiy, lotin tillariga mansub ko’plab so’z va iboralarni izohlab beradi. Biz uchun noma’lum so’zlarni ma’lum qiladi, tushunilishi qiyin bo’lgan so’zlarni tushuntiradi. Aniqrog’i, bizni so’z olamiga olib kiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi vakillari o’z vatanidan yiroqda yashashlariga qaramay, ona tillarini saqlab qolish maqsadida astoydil harakat qilganlar. Bu esa o’z navbatida Hindistonda asosiy aloqa quroli bo’lgan fors tiliga o’z ta’sirini o’tkazdi. Aniqrog’i, fors tili tarkibiga turkiy so’z hamda terminlarning kirib kelishiga sabab bo’ldi [A. Aliev, Q. Sodiqov, 1994. 21–26-b.].

Ma’lumki, eski o’zbek tilining Movarounnahr va Xurosonda shakllanishi va ildam rivojlanishi Temuriylar hukmronligining so’nggi davrlariga to’g’ri keladi. Bu davrda, ya’ni XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan mutafakkir shoir Alisher Navoiy eski o’zbek adabiy tilining yanada takomillashuvi va davlat tili darajasiga ko’tarilishiga katta hissa qo’shganligi ayni haqiqatdir [A. Rustam, K. Hasan, 1991. 12–13-b.]. Navoiy o’zining asarlarida, ayniqsa “Muhokamat ul-lug’atayn”da turkiy tilni fors tili bilan qiyoslab, uning fors tilidan qolishmasligini, hatto, o’rni kelganda, uning ustunligini misollar tahlili asosida ko’rsatib berdi. Shu davrda yashagan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) ham eski o’zbek tilida asarlar yaratib, o’zbek tili va adabiyoti tarixida katta iz qoldirdi. XVI asr boshlarida Bobur Hindistonni zabt etdi. Turkiy xalqlar u yerda o’z tili va madaniyatini tarqata boshladilar.

Bu esa Hindistonda eski o’zbek tili va adabiyotiga bo’lgan ijobiy munosabat yuzaga kelganligini ko’rsatdi. O’sha davr ijtimoiy hayotida fors, arab, hind so’zlari bilan bir qatorda turkiy so’zlardan ham faol foydalanib kelingan. Bunga sabab xalq hayotidagi va harbiy sohaga oid ko’pgina asboblardan, tushunchalardan, urf-odatni anglatadigan so’zlarning turkiy ekanligi edi. Boburiylar sulolasi davrida fors tili rasmiy va adabiy til sifatida mustahkam o’rin egallagan. Biroq, bu davr lug’atlarida turkiy tilga oid ko’plab so’z va atamalar ham qayd etilgan. Bu holat madaniy aloqalarning kengligi, turkiy xalqlar va ularning davlatchilik an’analari Hindiston hududida katta ta’sir kuchiga ega bo’lganini ko’rsatadi.

Bobur Mirzo va uning atrofidagi turli toifaga mansub shaxslar, ularning avlodlari Hindistonda bunday so’zlarni qo’llashda faollik ko’rsatganlar. Natijada turkiy so’z va terminlar Hindistondagi aloqalarlashuv, ya’ni xalq tiliga singib ketgan. Bu esa lug’atlar tuzish jarayonida turkiy so’zlarni ham inobatga olishni taqozo etardi. Jumladan, misol tariqasida XVI–XIX asrlarda Hindiston forsiy lug’atchilik markazlaridan biriga aylandi. Ma’lumotlarga ko’ra, shu davrda Hindistonda 100 dan ziyod forsiy izohli lug’atlar yaratilgan. Ular orasida: Roy Tekchandi Bahorning “Bahori Ajam”, Sirojiddin Alixoniy Orzuning “Charog’i hidoyat” va “Siroj-ul-lug’ot”, “Lug’oti turki”, Husayni Injuning “Farhangi Jahongiriy”, Muhammad Lodning “Muayyid-ul-fuzalo”, Muhammad Husaynning “Burhoni qote”, Muhammad G’iyosuddinning “G’iyos-ul-lug’ot”, Zamaxshariyning “Muqaddimatu-l-adab”, “Xulosa-i Abbosi”, “Lug’oti atrokiya”, “Anisu-l-udabo” va boshqa lug’atlarni keltirish mumkin. Mazkur lug’atlar nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, tarix, etnografiya va madaniy muloqot masalalari uchun ham

muhim manba hisoblanadi. Bu lug'atlarda turkiy so'zlarning ancha katta qatlami qayd etilgani tillararo ta'sirning kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Masalan, "G'iyos-ul-lug'ot" da turkiy so'zlar, ularning ma'nolari va qo'llanilish sohalari maxsus yoritilgan. Mazkur lug'atlar tarkibida turkiy so'zlarning miqdori jihatidan yetakchi o'rinni egallagan leksikografik manbalardan biri Muhammad G'iyosuddin "G'iyos-ul-lug'ot"i o'z davrining mashhur asari bo'lib, garchi Hindistonda fors tilida yaratilgan bo'lsa-da, unda arab, fors, hind va yunon so'zlari bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli bo'lgan ko'plab turkiy so'zlar ham mavjud (ular 800 ga yaqin). Muhammad G'iyosuddin haqida lug'atning "qavsiy quzah" (kamalak) lug'at maqolasida ma'lumotlar keltirilgan [Muhammad G'iyosuddin, 1323 (1905). 397.]. Unga ko'ra, Muhammad G'iyosuddin 1786–1791-yillar orasida dunyoga kelgan. Agar u "qavsiy quzah" lug'at maqolasini yozgan vaqtda 36 yoshda bo'lsa, lug'atni 40–41 yoshda tuzib bo'lgan [A. Vahidov, 1975. 5.]. "G'iyos-ul-lug'ot" dagi ba'zi turkiy so'zlarning "Lug'oti turki" va "Farhangi turki" kabi manbalardan olinganligini ko'rsatadi. V.A. Kapranovning fikricha, "Lug'oti turki" aniq bir lug'atning nomi ekanligi yoki umumiy holda turkiy lug'atlarga nisbatan qo'llanilganligi noma'lum [V.A. Kapranov, 1987. 151.].

Bu holat turkiy va forsiy tillar o'rtasidagi uzviy aloqani, ayniqsa madaniy va tarixiy muloqotni yaqqol tasdiqlaydi. Shu bois turkiy qatlam forsiy lug'atlarning muhim qismi hisoblanadi.

Turkiy so'zlarning lug'atlarga kirish sabablari:

1. **Harbiy-siyosiy muhit** – Boburiylar sulolasi turkiy asosga ega bo'lib, harbiy va ma'muriy terminlar forsiy matnlar orqali keng tarqalgan.
2. **Maishiy va etnografik aloqalar** – kundalik turmush, kiyim-kechak, taomlar nomlari turkiy til orqali lug'atlarda qayd etilgan.
3. **Madaniy ta'sir** – turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va an'analari forsiy muhit bilan uyg'unlashgan. Forsiy izohli lug'atlardagi turkiy leksemalarga misollar:

1. "Lug'at-i Firuzshohiy" – XIV asrda tuzilgan, turkiycha so'zlar ham uchraydi.

- قشون (**qo`shin**) – askarlar to'plami.
- تُغ (**tuğ**) – bayroq, harbiy ramz.
- يورت (**yurt**) – vatan, makon.
- قپوق (**qopuq**) – po'stloq, tashqi qavat.

2. "Farhang-i Jahongiri"

- تومان (**tuman**) – o'n minglik harbiy birlik.
- قورچی (**qo'rchi**) – podshoh muhofizlari.
- یغیت (**yigit**) – jasur, qahramon yigit.
- ایلچی (**elchi**) – safir, elchi.

3. "Burhon-i qote" – Muhammad Husayn Tabriziy (XVII asr), unda ko'pgina turkiy leksemalar izohlangan.

- اردو (**ordu/orda**) – qarorgoh, saroy.
- بیک (**bek**) – amir, hukmdor.
- اوت (**ot**) – ot.
- یغما (**yağma/yiğma**) – g'orat, talon.

4. "Farhang-i Rashidiy" – Akbarshoh va Jahongir davri (XVII asrda) yaratilgan, turkiy-hind so'zlar bilan boyitilgan.

- اوش (**osh**) – taom, palov.
- تىگ (**tung**) – kiyim, chopon.

- ایغ (ig) – g'azab.
- أوق (oq) – oq rang.
- 5. "G'iyos-ul-lug'ot"–Muhammad G'iyosuddin (XIX asr) tomonidan yaratilgan.
- التمش (altamish) – harbiy yurishda oldinda boruvchi qism.
- گوگ (gög) – osmon.
- قنداق (qo'ndaq) – yog'och bo'lib, unga mitiqning trubasini o'rnatadilar.
- ترکمان (turkman) – turk qabilasining nomi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, Hindistonda yaratilgan forsiy lug'atlarda turkiy so'zlar asosan **harbiy-siyosiy, maishiy, etnografik va tabiatga oid** sohalarda ko'p uchraydi. Bu holat turkiy xalqlar madaniyati va davlatchilik an'analari fors-hind muhitiga kuchli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Hindistonda yaratilgan forsiy lug'atlar nafaqat forsiy tilning boyishi, balki turkiy tillar ta'sirini o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Turkiy so'zlarning lug'atlarda qayd etilishi ularning keng qo'llanilganini, turkiy xalqlar madaniyati va davlatchilik tizimi Boburiylar davlati hayotida alohida o'rin tutganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Boburiylar davrida fors tili rasmiy va adabiy til sifatida rivojlangan, biroq shu bilan birga turkiy (asosan, chig'atoy va turkman) so'zlar ham forsiy lug'atlarga kiritilgan. Bu holat madaniy va tillararo aloqalarning kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Shu bois turkiy qatlam forsiy lug'atlarning muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нуров А. Гиёс-ул-луғот. -Душанбе: Адиб, жилди I, 1987. -372 б.
2. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. - Т.: Ўзбекистон, 1994. -122 б.
3. А. Рустам, К.Хасан. Ҳусайн Бойқаро. Рисола. - Т.: Шарқ, 1991. – 23 б.
4. Муҳаммад Гиёсуддин. Гиёс-ул-луғот, - Конпур, 1323 (1905), - 626 б.
5. А.Вахидов. Структурно-семантическая характеристика лексики в «Гиёс-ул-луғот», Автореф. дисс... канд. филол. наук. - Душанбе, 1975. -33 стр.
6. Капранов В.А.. Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI-XIX вв., -Душанбе, 1987. - 221 стр.